

Tarixni tadqiq etish yo'lida hamkorlik davom etmoqda

Tarix instituti direktori Azamat Ziyo Turkiyaning TIKa tashkilotini O'zbekistondagi rahbari Ali Rizo Tezjanni qabul qildi.

Ushbu uchrashuvda tarix fani oldida turgan turli masalalar muhokama qilindi. Chunonchi, O'zbekiston va Turkiyada arxeologik qazishmalarni tashkil etish bo'yicha rejalar va ularning istiqbollari ko'rib chiqildi. Bunda O'zbekiston va Turkiyadagi tarixiy maskanlar, xususan, turkiy xalqlar tarixini chambarchas bog'lovchi ilmiy-arxeologik va dala tadqiqotlarini olib borish yuzasidan fikrlar almashinildi. Kelgusida hamkorlik qilish bo'yicha rejalar tuzildi.

Bundan tashqari, uchrashuvda ikki mamlakat tarixchi olimlarini jalb qilgan holda tarix fanining oldida turgan dolzarb masalalar yechimiga bag'ishlangan xalqaro anjumanlarni doimiy tashkil etish, olingan natijalarni targ'ib etish uchun dasturlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish belgilandi. Tarixchi mutaxassislarni tayyorlash maqsadida yozgi o'qishlarni tashkil etish va ularni moliyalashtirishda TIKa mablag'larini jalb etish, yoshlarning til va manbashunoslik bo'yicha Turkiya universitetlarida tahsil olishlariga zarur sharoitlarni yaratish bo'yicha kelishildi.

Bu kabi uchrashuvlar yaqin yillarda o'z samarasini berishiga ishonamiz.